

## O'ZBEK TILINING LUG'AT BOYLIGI

Roziqova Sayyora Habibullayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Iitimoiy-gumanitar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

maqolada o'zbek tilining lug'at boyligi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** lug'at, fonetika, leksema, tovush, hozirgi adabiy o'zbek tili.

### INTRODUCTION

Har bir til asosan o'z lug'at boyligi va grammatik qurilishi asosida o'z taraqqiyot qonunlari bo'yicha o'sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, bir necha xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan lug'aviy birliklar, qismangina fonetik va grammatik birliklar) ikkinchi tilga o'tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan yondashib hozirgi adabiy o'zbek tili lug'at boyligida ikki qatlamga ajratiladi:

- 1) o'z qatlam;
- 2) o'zlashgan qatlam.

O'z qatlam deganda, aslan shu tilniki bo'lgan leksemalar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek, o'z affiks bilan boshqa til leksemalaridan yasalishlar tushuniladi.

O'zbek tili lug'at boyligidagi eng qadimgi qism umumturkiy leksemalardan iborat. Bunday leksemalar ko'pchilik turkiy tillarda hozir ham ishlatiladi. Umumturkiy leksemalarning asosini bosh-, ko'z-, qosh-, qo'l-, yuz-, uch-, yot-, bo'l- kabi bir bo'g'inli tub leksemalar tashkil qiladi. Bulardan tashqari, o'zbek tili lug'at boyligidagi umumturkiy qatlamda ona-, bola-, bobo-, qora-, tekin- kabi ikki bo'g'inli tub leksemalar ham anchagina.

Hozirgi o'zbek tili lug'at boyligida, ko'pchilik turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan qismdan tashqari, o'zbek tilining o'z mustaqil taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan qism ham mavjud. Buni, bir tomondan, o'zbek tilining o'zi doirasidagi yangicha yasalishlarda ko'rsak, ikkinchi tomondan, leksemalarning leksik ma'no taraqqiyoti natijalarida ko'ramiz. Masalan, boshlang'ich-, belgili-, yutuqli-, yonilg'i-, yoqilg'i-, yollanma-, yozuvchi- kabi leksemalar – o'zbek tilining o'z imkoniyatlari bilan yasalgan leksemalar.

Bulardan tashqari, boshqa tildan olingan leksemaga o'zbekcha affiksni qo'shib leksema yasash ham avj olgan. Masalan, jangchi-, xizmatchi-, traktorchi-, ekskavatorchi-, paroxodchilik-kabilarda leksema yasash asosi – boshqa til leksemasi, yasovchilar esa – o'zbek tiliniki. Buning aksi, ya'ni o'zbekcha leksemaga boshqa tilga xos morfemani qo'shib leksema hosil qilish ham uchraydi. Masalan, bebosh- (bevosh-), beish-, bilimdon-, tug'ruqxon- kabilar shu yo'l bilan yasalgan. O'zlashgan qatlamga xos leksemalarni o'z qatlam leksemalaridan ajratib olish hamma vaqt yengil bo'lavermaydi. Bularni o'zaro farqlashda ko'pincha leksemalarning tovush tuzilishiga suyanib (ba'zan harfiy ifodasini ham hisobga olgan holda) fikr yuritiladi. Tovush tuzilishi jihatidan o'z qatlamga xos leksemalarning asosiy belgilari deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

O'zbekcha tub leksemalar asosan bir bo'g'inli, qisman ikki bo'g'inli bo'ladi (uch bo'g'inli, hatto ikki bo'g'inli leksemalar tarixan hosila leksema bo'lib chiqadi); grafik jihatdan o'zbekcha leksemalarda tutuq belgisi ishlatilmaydi.

Yuqorida sanalgan holatlarning aksi o'zlashgan leksemalarning asosiy belgilari deb qaralishi mumkin. Leksemalarning mazmun jihati ham ularning o'z qatlamga yoki o'zlashgan qatlamga mansubligidan dalolat berib turadi. Ma'no tarmoqlanishi ko'pincha o'z qatlamga mansub leksemalarga xos bo'ladi; o'zlashgan leksemada ko'p ma'nolilik boqe bo'lishi uchun bunday leksema tilda uzoq vaqt yashashi, shu til lug'atiga singib ketishi kerak. Bundan tashqari, hozirgi o'zbek tili lug'at boyligidagi o'z qatlamda aniq ma'noli leksemalar, o'zlashgan qatlamda esa mavhum ma'noli leksemalar ko'p.

O'zbek tiliga leksema o'zlashtirishning manbalari turli davrlarda turlicha bo'lgan. O'zbek tiliga leksema o'zlashtirishdagi qadimgi manbalar deb fors va arab tillari ko'rsatiladi; rus tilidan leksema o'zlashtirish bularga nisbatan ancha keyingi vaqtlarda sodir bo'la boshlagan. Fors, arab tillaridan leksema o'zlashtirish tarixan ko'p bo'lgan, hozir esa siyraklashgan. Hozirgi o'zbek tilida rus tilidan o'zlashtirishlar o'rnini bevosita g'arb tillarining o'zidan o'zlashtirish oldi: birja-, broker-, makler-, debitor-, kreditor-, kovit- kabi. O'zlashgan leksemalar hozirgi adabiy o'zbek tili lug'atida salmoqli o'rin tutadi. Til taraqqiyotining borishi o'zlashgan qatlamning, ayniqsa, baynalmilal (internatsional) leksemalar hisobiga yanada boyib borishini ko'rsatib turibdi.

Umuman, keyingi vaqtlarda lug'atning boyish jarayonida so'z yasashdan ko'ra o'zlashtirish ustun bo'lib bormoqda. Chunki o'zlashtirish – so'z yasashga nisbatan yengil yo'l. Jamiyat taraqqiyotining hozirgidek tez sur'atlar bilan borishi til amaliyotida ham har on hozirjavoblikni talab qilmoqda. Tillar orasida o'zlashtirishning faollasha borishiga asosiy sabab – shu.

O'zbek tili lug'atining sofliigi uchun kurashimiz deb bir til lug'atidan olingan leksema o'rniga boshqa til lug'atidan olingan yoki shunday birlik asosida yasalgan leksemani tavsiya etish o'zbek tili lug'atini soflashtirmasligi aniq: institut- (lotincha) – oliygo'h- (arabcha + tojikcha), fakultet- (lotincha) – qulliyot - (arabcha) kabi almashtirishlar lug'atimizning sofliigini mutlaqo ta'minlamaydi. O'zlashtirma leksema o'zbekcha leksema bilan almashtirilsagina, lug'atimiz sofliigiga xizmat qiladi: sovet- (ruscha) – kengash- (o'zbekcha) misolidagi kabi. Lekin, bunday almashtirishlar juda oz bo'ldi.

Umuman, birorta til yo'qki, uning lug'atida boshqa tildan olingan leksema bo'lmasa. Har qancha xitoy devori tiklamaylik, leksema tildan tilga o'taveradi. Demak, umuman leksema o'zlashtirishlarga qarshi emas, balki noo'rin, ortiqcha o'zlashtirishlarga qarshi chiqish kerak. Qaysi til leksemasi bo'lishidan qat'iy nazar, til lug'atiga singib ketgan, leksemani chiqarib tashlash zararli ekanligini anglash lozim. Til boyligi esa xalq va jamiyatning taraqqiyoti bilan belgilanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Buxoro: 2015.
2. Nosirov P. O'zbek nutq madaniyati. –T.: 2014.